

XOSIYAT RUSTAMOVA SHE'RIYATIDA TABIAT TASVIRI VA EKOPOEZIYA

Zakirova Gulchehra Baxramovna,

Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Benazir20160828@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XXI asr o'zbek she'riyatining iqtidorli vakillaridan biri Xosiyat Rustamova she'riyatida tabiat tasviri ifodasi tahlilga tortilgan.*

Shoiraning bugungi kundagi dolzarb bo'lgan mavzulardan biri ekopoeziyaga munosabati ham aniqlangan va ilmiy jihatdan o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *lirika, obraz, o'zbek adabiyoti, ekopoeziya, shakl, peyzaj, "lirik men", she'r, tahlil, subyu'ektivlik.*

Аннотация. *В этой статье проанализировано выражение природы в стихотворении Хосият Рустамовой, одного из талантливых представителей узбекской поэзии XXI века.*

Одна из актуальных тем поэтессы — ее отношение к экопоэзии.

Ключевые слова: *лирика, образ, узбекская литература, экопоэзия, форма, пейзаж, лирика, поэзия, анализ, субъективность.*

Abstract. *This article analyzes the expression of nature in a poem by Khosiyat Rustamova, one of the talented representatives of Uzbek poetry of the 21st century.*

One of the current topics of the poetess is her attitude to ecopoiesis

Keywords: *lyrics, image, Uzbek literature, ecopoiesis, form, landscape, lyrics, poetry, analysis, subjectivity.*

Kirish. Zamonaviy lirika tahlilida tabiat tasviri ko'pincha ijtimoiy mazmun bilan boyitilgan holda talqin qilinadi. Tabiat obrazlari orqali shoir jamiyatdagi muammolar, inson va borliq o'rtasidagi ziddiyatlar, ekologik xavotirlar va ma'naviy inqiroz holatlarini ham ifodalaydi. Bunday yondashuvda tabiat tasviri lirik kechinmaning tashqi shakli bo'lish bilan birga, ijtimoiy ongning badiiy ifodasiga aylanadi.

O'zbek adabiyotida ekopoeziyaning paydo bo'lishi ham atrof-muhitga bo'lgan e'tibor va global ekologik muammolarning chuqurlashuvi bilan bog'liq. Ekopoeziya – bu tabiatga nisbatan insoniyat munosabatini aks ettiruvchi she'riyat yo'nalishi bo'lib, u tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlik, muvozanatni saqlash zarurati haqida o'yga chorlaydi.

Adabiyotlar tahlili. V. Belinskiy ta'kidlagani kabi: "Tabiat – san'atning abadiy namunasi sanalsa, unda inson eng buyuk va oliy mo'jizadir".[6,12.] deganida inson bilan tabiat munosabatlarining chambvrchas bog'liq eekanligiga ishoradir

"Peyzaj lirikasida tasvirlangan tabiat manzarasida lirik sub'yekt suratlanadi. lirik sub'ekt qalbdan o'tkazib berilgan manzara oniy kayfiyatning obraziga aylanadi". [2,223.] Darhaqiqat tabiatning eng go'zal manzarasi peyzaj orqali tasvirlanadi. Ayniqsa she'riyatda tabiat tsviri, shoir "lirik men"ining hayrati, hayajoni ona tabiatga munosabatda ko'zga tashlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada mavzuni yoritishda tarixiy-qiyosiy va tipologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar. Tabiat tasviri orqali “lirik men”ning ijtimoiylashuvi, avvalo, individual kechinmaning umumlashuvi orqali yuz beradi. Shoir o‘z shaxsiy holatini tabiat manzaralari bilan uyg‘unlashtirar ekan, uni o‘quvchi uchun tanish va anglashiladigan ruhiy holat darajasiga olib chiqadi. Natijada lirik qahramonning ichki dunyosi muayyan shaxsga xos bo‘lishdan chiqib, jamiyat, davr va insoniyatga xos umumiy holatni ifodalay boshlaydi.

“Lirik men”ning ijtimoiylashuvi jarayonida tabiat tasviri ko‘pincha ramziy ma’noga ega bo‘ladi. Masalan, qurigan daraxt, bo‘shab qolgan dalalar, qorong‘u tun yoki sokin tong obrazlari orqali jamiyatdagi ruhiy holat, ijtimoiy beqarorlik yoki umid motivlari ifodalanadi. Bu holatda tabiat unsurlari shaxsiy hissiyot emas, balki ijtimoiy xotira va tarixiy tajribaning badiiy belgisi sifatida talqin qilinadi.

Lirik kechinma va tabiat tasviri o‘rtasidagi munosabatda subyektivlik muhim o‘rin tutadi. Shoir tabiatni qanday his etsa, shunday tasvirleydi. Biroq ushbu subyektivlik mutlaqo individual doirada qolmaydi. Aksincha, u umumiy estetik qonuniyatlar va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanadi. Natijada lirik kechinma subyektiv bo‘lsa-da, mazmunan ijtimoiylashgan badiiy hodisaga aylanadi.

Adabiyot tarixiga nazar tashlasak, tabiat tasviri orqali “lirik men”ning ijtimoiylashuvi turli davrlarda turlicha namoyon bo‘lganini ko‘ramiz. Mumtoz lirika uchun tabiat ko‘proq ilohiy qudrat, kosmik uyg‘unlik va falsafiy mushohada manbai bo‘lsa, zamonaviy lirika uchun u inson va jamiyat muammolarini aks ettiruvchi ramziy makonga aylanadi. Bu jarayon lirik qahramonning ichki dunyosi bilan ijtimoiy borliq o‘rtasidagi aloqaning kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Hozirgi zamon o‘zbek she’riyatida tabiat tasviri ko‘pincha ichki sukut, yolg‘izlik, izlanish va ruhiy tanglik holatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Bunday she’rlarda tabiat manzarasi fon vazifasini bajarmaydi, balki lirik kechinmaning markaziy ifoda vositasiga aylanadi. Shu tariqa “lirik men” o‘z ichki holatini tabiat orqali ifodalalar ekan, uni ijtimoiy ruhiy holat darajasiga ko‘taradi.

Tabiat tasviri orqali “lirik men”ning ijtimoiylashuvi, ayniqsa, ayol lirikasida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Ayol shoirlar ijodida tabiat ko‘pincha ruhiy panoh, ichki suhbatdosh va ma’naviy tayanch sifatida talqin qilinadi. Bu holatda tabiat tasviri individual ayol kechinmalarini ifodalash bilan birga, jamiyatdagi ayol ruhiyatiga xos muammolarni ham badiiy lashtiradi. Natijada lirik kechinma shaxsiy tajriba doirasidan chiqib, ijtimoiy mazmun kasb etadi.

Shuni ta’kidlash joizki, tabiat tasviri orqali “lirik men”ning ijtimoiylashuvi bevosita didaktik yo‘l bilan emas, balki badiiy umumlashtirish orqali amalga oshadi. Shoir ijtimoiy muammoni ochiq bayon qilmaydi, balki uni tabiat manzaralari, ramziy obrazlar va hissiy ohang orqali ifodalaydi. Bu esa lirik asarning estetik ta’sir kuchini oshirib, uning ma’naviy qiymatini belgilaydi.

Musavvirlar borliqni mavjud ranglar orqali, shoirlar esa tirik soʻz yordamida tasvirlaydilar. Nega unda moʻyqalam sohiblarini “Ranglar shoiri” deb atamaymiz-u, yaxshi shoirga nisbatan “Soʻz musavviri” degan eʼtirofni qoʻllaymiz?! Ayniqsa, Tabiat va uning fusunkor nematlari mavzusida yozilgan sheʼrlarni oʻqiganimizda beixtiyor rangtasvir va sheʼriyatning uygʻunligini his etamiz. Adabiyot va tasviriy sanʼatni ayri holda tasavvur etib boʻlmasligiga amin boʻlamiz. Sanʼatning bu ikki turi bejizga bir xil – Peyzaj janri deb nomlanmaydi.

Peyzaj – lirikada inson his-tuygʻu va kechinmalarining yorqin ifodalash uchun imkoniyati cheksiz janr sanaladi. Ijodkor poetik mahoratining oʻziga xosligi, ularning tabiatni tasvirlashdagi badiiy iqtidori bilan belgilanadi.

Xosiyat Rustamova poetik olamida Borliq va Inson mushtarakligi namoyondir. Shoir sheʼriyatida betakror peyzaj lirikasi hodisasini uchratish mumkin:

Kuzning kechasidan tun oʻtar yurib,

Zimdan koʻz ostiga olib bogʻlarni.

Tikonning ichiga oʻzini urib –

Tishlari gʻichirlab ketar anorning.

Sargʻaya boshlasa qarovsiz bogʻlar –

Shoxlar bir nuqtadan olmas koʻzini.

Beparvo toʻkilib ketsa yaproqlar –

Olmalar bozorga solar oʻzini [3,76]

Ibrohim Gʻofurov shoiraning “Najot” va “Devor” toʻplamiga yozgan taqrizida: “Siz doim tabiat bilan birga yashaysiz, birga nafas olasiz. Tabiatni xuddi onangizni kuzatganday muhabbatli nigoh bilan kuzatasiz. Har ikki kitobingizda ham tabiatdan holi biron soʻz yoʻq. Daraxtlar, maysalar, yoʻllar, qorlar, yomgʻirlar, jonzotlar oʻz moʻjizalari bilan birga Sizning suhbatdoshingiz. Siz ularning tillarini yechasiz, tilga kiritasiz. Siz erkalaysiz va ular Sizga dil rozlarini soʻylaydilar” [1]

- deya Xosiyat Rustamova ijodiga munosib chizgilar chizadi.

Darhaqiqat, uning aksariyat sheʼrlarida tabiat ziynatlari, hodisalari, unsurlari va ajoyibotlari ishtirok etadi:

Yoʻlingga xazonlar

Qoʻyilgan toʻshab,

Shamol kelganingda qiladi taʼzim

Daraxtlar beibo xotinga oʻxshab,

Qoʻshning uyiga solmoqda razm. [3,72.]

yoki

Tarvuz yorilmoqda paydar- pay

Poliz pardozi bilan ovunar.

Koʻproq ichib qoʻygan odamday

Dumalashib yotar qovunlar. [3,152.]

Xosiyat Rustamova yilning to'rt faslini madh etarkan, ona diyorumizda tarovati va barokatini namoyon qilgan bahor, yoz, kuz hamda qish manzaralarini ko'z o'ngimizda musavvirona gavdalantiradi:

Qishdan omon chiqqan zaminning,
Rangi-ro'yi o'zgara boshlar. [4,89.]

Odatda shoirlar fasllarga ta'rif berganda "Zumrad bahor", "Jazirama yoz", "Xazonrezi kuz", "Qahraton qish" kabi an'anaviy metaforik obrazlardan foydalanishadi. Xosiyat Rustamova esa tabiat manzaralariga kutilmagan tashbehlar va tasvirlar bilan yondashadi. "Qishdan omon chiqqan zaminning, rangi-ro'yi o'zgara boshlar" - deya zaminning bahorda yangilanishiga ishora qilsa, "Endi ko'zi ilingan yerning, qo'ltig'idan tushar tarvuzi" - deb yozning eng totli nemati tarvuzning pishib yetilish jarayonini tasvirlab, fasllar nafasini she'rlariga jo etadi:

Ko'kka cho'zdim behol qo'limni,
Jovdiradi ko'zimda savol.

Bir amallab yiqqan umrimni,
Yerga to'kib yubordi shamol. [3,19.]

Kuzgi xazonbarglar ortda qolgan yillar taqvimining zarvaraqlariga o'xshaydi. Umidbaxsh bahor va ehtirosli yozdan so'ng parishonxotir kuz chehramizga ma'yuslik bag'ishlaydi. Turlanishlardan zada bo'lgan yurak so'nggi fasldan muruvvat kutmaydi. Chunki oldinda uning qahratonning qishning qarshi oladi:

Sovuq kunlar ochdi bag'rini,
Qahr bilan qish keldi kirib.
Bog'lar inon-ixtiyorini,
Qarg'alarga qo'ydi topshirib. [3,101.]

Ona tabiat har faslda turfa libosini kiyib, yiqqan sepini olamga yoyadi. Oniy lahzalarda sodir bo'ladigan tabiiy hodisalar shamolning esishi-yu, yomg'irning yog'ishi, chaqmoqnihg chaqishi-yu, momoqaldiroqning gumburlashi ijodkor kayfiyatiga ta'sirini o'tkazadi:

Boshlanar bo'y yetgan novdada titroq,
Yurak alg'ov-dalg'ov,
Bezdirar jonni.
Sal aqldan ozgan momoqaldiroq,
Nogoh yuziga chang solar osmonning. [5,89.]

Xosiyat Rustamova tabiatni sevadi, u bilan tillashadi. Nabotot dunyosini obrazli harakatlantiradi. Dov-daraxtlar, o'simliklar va mevalarga jon bag'ishlaydi: "g'o'zalarning gapiga kirmay – qah-qah urar ko'sakvachchalar". [5,11.]

deya, paxtaning ochilish jarayonini tasvirlaydi. "Yaxshiyamki bahorga kelib – Daraxtlarning ochilar baxti". [5,21.]

Ko'klam kelganidan darak beruvchi ushbu satrlarda esa daraxtlarning gullashi ishonarli usulda ifodalanadi.

Shoiraning tabiat haqidagi tasavvurlari jo'n emas. U yurtning har giyohi va har daraxtini o'zgacha tasavvur etadi: "Gunohini olib bo'yniga, Yer chizgancha turar majnuntol" yoki "Daraxtlarda toklar o'ltirar, Chalishtirib oyoqlarini" yana "Olma o'zini osar, Shamol turar elanib. Erda yotar gilolar o'z qoniga belanib". Majnuntolning yer chizib turishi, toklarning oyoqlarini chalishtirib o'tirishi yoki gilolarning o'z qoniga belanib yotishi. [5,26.]

tashxis san'atining go'zal namunasi.

Xosiyat Rustamovaning tabiatning tarannum etuvchi she'rlari ham ortiqcha bo'yoq va madhiyabozlikdan holi. U tabiatni hayotdan ayri holda tasvirlamaydi, aksincha tabiat va hayot hamnafasligini yaxshi ilg'aydi.

Shoira Xosiyat Rustamova tabiat go'zalliklari tarannumi bilan birga tabiatga ayovsiz munosabatda bo'lganlarga javoban "Najot" to'plamida quyidagi she'rini e'lon qildi:

Boshimdagi telpak yumshoq yung –

O'ldirilgan o'rmon qiroli.

Mening bitta po'stinim uchun

Yo'q qilganlar qancha quyonni?

Hayot menga qilar qancha sarf,

Bo'lardi-ku tezroq qarizam.

Bo'ynimdagi qimmatbaho sharf –

Esdalikdir suv parisidan.

Jilolanar burgutko'z sumkam,

Yuragimga dengiz sochar dur.

Timsolteri etigim bilan

Men atrofga boqaman mag'rur.

To'ldiraman har kun kamini,

O, naqadar o'chman hashamga.

Hayot bori jonzotlarini

Dafn etar mening jussamga. [5,]

Shoiraning bu ifoda yo'sinida o'tkir kinoya va sarkazm mujassam. Davrlar keldiki inson hoyu-havaslarini uchun hatto eng yirtqich hayvonlar ham qurbon qilindi. har kun kamini to'ldirmoq uchun odam bolasi neki jonzot bo'lsa hammasini qirib tashlashga shay holatga keldi. Istehzo to'la she'rda lirik qahramon mushfiq tabiatni mahf etganidan, hashamga o'chligidan atrofga mag'rur boqqanini aytish barobarida nafsiga qul kimsalarning kirdikorlari va ruhiy holatlarini ochib beradi. Unda ko'tarilgan muammo nechog'li og'riqli va dolzarb bo'lmasin qisqa satirik she'r tabiatiga hamda antik davr adabiyoti an'alariga ko'ra epigramma janrida yozilgani, mazmun-mohiyati bilan chuqur ta'sir kuchiga ega ekani bilan ahamiyatlidir.

Xulosalar. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy o'zbek lirikasida tabiat tasviri oddiy fon yoki manzara emas, balki "lirik men"ning ijtimoiylashuv mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Tabiat orqali shoir individual kechinmalarni umumlashtiradi, shaxsiy dardni davr dardiga, ichki iztirobni jamiyat ruhiyatiga aylantiradi. Shu tariqa subyektiv hissiyot ijtimoiy mazmun kasb etadi.

San'at turlari o'rtasidagi uyg'unlik masalasiga kelganda, musavvir rang bilan, shoir esa so'z bilan tasvir yaratadi. Ammo mohiyatan har ikkisining maqsadi bir — borliqni estetik idrok etish va inson qalbiga ta'sir o'tkazish. Peyzaj janrining adabiyot va tasviriy san'atda bir xil nom bilan atalishi ham bejiz emas. Chunki peyzaj — bu tashqi manzara orqali ichki olamni ochish san'atidir. Shoir "so'z musavviri" deb atalishining sababi ham shunda: u rangtasvirga xos tasviriylikni tirik so'z yordamida yaratadi.

Xosiyat Rustamova ijodida tabiat va inson mushtarakligi ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi. Shoir peyzajni shunchaki tasvirlamaydi, balki uni harakatlantiradi, jonlantiradi, ruhlantiradi. Daraxtlar, shamollar, mevalar, fasllar — barchasi insoniy kechinmalar bilan uyg'unlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гофуров И. Қалб дурлари // "Тафаккур" журналі. – Тошкент, 2008. – 1-сон.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 408 b. – 223-b.
3. Rustamova X. Devor. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 152 b. – 101-b.
4. Rustamova X. Rido. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.
5. Rustamova X., 40:0, – Toshkent: Istiqlol, 2011. 89-b.
6. Халмухаммедов А. (сост.). Жемчужина мысли народной: Афоризм, изречение, пословицы. – Ташкент: Ёш гвардия, 1972. – 12-стр.